



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

ARCHAEOLOGICAL HERITAGE OF TASHKENT IN THE 19TH CENTURY: RESEARCH, FINDINGS, AND MONUMENTS

Akhadulla Rakhmatullayev

Deputy for Academic Affairs

Jizzakh Region Pedagogical Skills Center

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Tashkent, archeology, archaeological research, oriental studies, historical sources, excavations, archaeological sites, scientific significance.

Received: 22.04.25

Accepted: 24.04.25

Published: 26.04.25

Abstract: This article examines the history of archaeological research in Tashkent and its surroundings from the late 19th century to the early 20th century. The article analyzes the initial archaeological studies in the Tashkent region, the archaeological finds of that period, and their scientific significance. It discusses the interest of Russian Orientalists in Tashkent and the archaeological monuments discovered as a result of these studies. The article also highlights the issues related to the insufficiency of written sources and the challenges during the initial stage of archaeological excavations.

XIX ASRDA TOSHKENTNING ARXEOLOGIK MEROSI: TADQIQOTLAR, TOPILMALAR VA YODGORLIKLER

Axadulla Raxmatullayev

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi

Akademik faoliyat bo'yicha o'rinnbosar

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Toshkent, arxeologiya, arxeologik tadqiqotlar, sharqshunoslik, tarixiy manbalar, qazishmalar, arxeologik obidalar, ilmiy ahamiyat.

Annotatsiya: Ushbu maqola Toshkent va uning atrofidagi arxeologik tadqiqotlarning XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixini o'rGANADI. Maqolada, Toshkent hududida olib borilgan dastlabki arxeologik izlanishlar, bu davrdagi arxeologik topilmalar va ularning ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. XIX asrning oxirida rus sharqshunoslaring Toshkentga bo'lgan qiziqishi va tadqiqotlar natijasida kashf etilgan arxeologik obidalar

haqida so‘z boradi. Shuningdek, yozma manbalarning yetarli bo‘lmaganligi va arxeologik qazishmalarining boshlang‘ich bosqichidagi muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ТАШКЕНТА XIX ВЕКА: ИССЛЕДОВАНИЯ, НАХОДКИ И ПАМЯТНИКИ

Ахадулла Рахматуллаев

Заместитель по учебной (академической) деятельности
Центр педагогического мастерства Джизакской области
Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ташкент, археология, исследования, исторические источники, раскопки, археологические памятники, научное значение.

Аннотация: Данная статья исследует историю археологических исследований Ташкента и его окрестностей с конца XIX века до начала XX века. В статье анализируются первые археологические исследования на территории Ташкента, археологические находки того времени и их научное значение. Рассматривается интерес русских востоковедов к Ташкенту в конце XIX века и археологические памятники, открытые в результате этих исследований. Также рассматриваются проблемы, связанные с недостаточностью письменных источников и начальной стадией археологических раскопок.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus sharqshunoslarining Turkiston hududiga kirib kelishi, mahalliy moddiy madaniyatni o‘rganish va tarixiy manbalarni tahlil qilishda yangi bir bosqichni boshlab berdi. Bu davorda turli arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning asosiy yo‘nalishi tarixiy yodgorliklarni o‘rganish bo‘lib, rus olimlari o‘z mablag‘lari hisobiga arxeologik qazuv ishlarini boshladilar. Bu tadqiqotlar O‘rta Osiyo hududida arxeologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan bo‘lsa-da, boshlang‘ich bosqichlar hali yuzaga kelgan ilmiy metodlarni qo’llashda muammolarga duch keldi. XIX asrning oxiriga kelib, arxeologik izlanishlar tasodifiy topilmalar asosida olib borildi va yozma manbalarning yetarli bo‘lmasligi tufayli, bu davrdagi arxeologik tadqiqotlar natijalari kamdan-kam hollarda to‘liq ilmiy xulosalarga olib keldi.[1]

Toshkent vohasi, Xorazm, Surxon, Zarafshon va Farg‘ona vohalari kabi, qadimdan o‘rta asrlar madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. O‘rta Osiyo hududining tarixiy rivojlanishi va shaharlashuv jarayonlari, arxeologik tadqiqotlar orqali, Toshkentning ko‘hna madaniyat markazlaridan biri ekanligini isbotlaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida rus sharqshunoslari va havaskor arxeologlar Toshkent va uning atrofidagi hududlarni o‘rganishni boshladilar. Toshkent

va uning atrofidagi yodgorliklarni o‘rganish, asosan, rus arxeologlari va tarixchilari tomonidan olib borilgan bo‘lib, bu jarayonning birinchi bosqichi ko‘proq geografik va tarixiy izlanishlarga qaratilgan edi.

Toshkentni arxeologik jihatdan o‘rganishning dastlabki bosqichlari XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda, asosan, bir nechta hududlarda qisqa muddatli qazishmalar o‘tkazilgan. Misol uchun, Shoshtepa, Yunusobod Oqtepasi, Chilonzor Oqtepasi, Kugaittepa va Mingo‘rik shaharchalarida qisqa muddatli arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Lekin, bu davrdagi tadqiqotlar asosan epizodik xarakterda bo‘lib, tajribali arxeoglarning yetishmasligi sababli to‘liq ilmiy natijalarga olib kelmagan.[2]

O‘rta Osiyo hududida Toshkent tarixi haqida yozma manbalar juda kam edi. V.V.Bartoldning ta’kidlashicha, Toshkent tarixi bo‘yicha yozma manbalar Samarqand, Marv va Buxoro kabi yirik madaniyat markazlari bilan solishtirganda juda kam bo‘lgan. Bu davrda topilgan arxeologik materiallar, asosan, tarixiy yozuvlarni tasdiqlovchi sifatida qabul qilindi, lekin ular tarixiy jarayonlarni chuqurroq o‘rganishga imkon bermadi. Toshkent tarixi haqida aniq ilmiy xulosalar chiqarish uchun yozma manbalarning yetarli emasligi muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Toshkent va uning atrof hududlarida ilk arxeologik topilmalar XIX asrning 80-yillarida yuzaga keldi. Masalan, 1886 yilda “Turkestanskie vedomosti” gazetasida, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatorining topshirig‘i bilan o‘lkani o‘rganish ishlarini boshlagan Ye.T. Smirnov, Toshkentning yaqinidagi Niyozboshi pochta markazida odam suyaklari va sopol idishlarni topdi. Bu topilmalar, keyinchalik arxeologik kuzatuv va qazuv ishlari uchun asos yaratdi.[3]

Toshkentning o‘rganilishi keyinchalik yanada kengayib, bir nechta boshqa topilmalar va yodgorliklarni kashf qilishga olib keldi. Misol uchun, 1887 yilda “Nikiforov yeri” deb nomlangan joyda ikkita ilon figurasi tasvirlangan sopol bo‘laklari topildi. Bu topilma shundan so‘ng, Toshkentda arxeologik tadqiqotlarni o‘tkazish uchun yangi bir qadam bo‘ldi. Shuningdek, 1886 yilda Sirdaryo viloyatidan olib ketilgan topilmalar, Toshkentni arxeologik jihatdan o‘rganishda dastlabki yirik ishlarning boshini tashkil etdi.

Toshkent vohasidagi Shoshtepa ko‘hna shahri XIX asrning oxirida o‘rganila boshlandi. Bu shahar Toshkentning janubiy qismida, Salor va Bo‘rijar daryolarining qo‘silish joyida joylashgan. Shoshtepa, tadqiqotlar orqali, dastlabki arxeologik topilmalar bilan ajralib turdi. Bu yerda to‘plangan sopol idishlar, temir buyumlar, hayvon suyaklari va boshqa arxeologik materiallar shaharni o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.[5]

Bundan tashqari, 1896 yilda Toshkentda olib borilgan qazishmalar, Shoshtepa ko‘hna shahrining tarixiy va madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. Ushbu

qazishmalar orqali ko‘plab qadimiy buyumlar topildi va bu yerda ilgari yashagan aholining madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar olindi.

XIX asrning oxirida Toshkent tarixini o‘rganish faoliyati yangi bir bosqichga o‘tdi. 1895 yilda Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi tashkil etilib, bu davrda Toshkent va uning atrofini o‘rganish yanada tizimli xarakter kasb etdi. To‘garak a’zolari Toshkent tarixini o‘rganishda o‘z izlanishlarini davom ettirdilar, ammo bu davrda ilmiy metodlarni qo‘llashda hali ko‘plab muammolar mavjud edi. Arxeologik qazishmalar va kuzatuvlar, to‘garakning o‘zida mutaxassis arxeoglarning yo‘qligi sababli, cheklangan edi.[6]

Xulosa qilib aytganda XIX asrning oxiridan XX asrning boshlariga qadar Toshkent va uning atrofini o‘rganish arxeologik tadqiqotlarining dastlabki bosqichini tashkil etdi. Bu davrda o‘lkada mutaxassis arxeoglarning yetishmasligi va ilmiy metodlarning rivojlanmaganligi sababli, arxeologik topilmalar asosan tasodifiy xarakterda bo‘lib, ilmiy izlanishlar yanada chuqurlashmadi. Biroq, bu tadqiqotlar Toshkentning tarixiy o‘tmishiga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni kashf qilishda muhim rol o‘ynadi va keyingi avlod arxeologlari uchun asos yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреев М. Местности в долине р. Ангrena, интересные в археологическом отношении // Туркестанские ведомости. 1893. 16 (29) июня. № 46.
2. Вяткин В. К исторической географии Ташкентского района // Туркестанские ведомости. 1900. № 101.
3. Диваев А. Промыслы и занятия туземцев азиатского города Ташкента // Туркестанские ведомости. 1901.
4. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Ташкент, 1912.
5. Лунин Б.В. Из истории русского Востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917 гг.). Ташкент, 1958. С. 25.
6. Маев Н.А. Азиатский Ташкент // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Под. ред. Н.А. Маева. Выпук IV. Санкт-Петербург. 1876. С.260-313.